

**YURIDIK SHAXS VA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARGA /MILLIY/
XALQARO/ KORPORATIV BANK KARTASIGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA
OMMAVIY OFERTA**

ATB "Biznesni rivojlantirish banki" (keyingi o'rinlarda – **Bank**) yuridik shaxsga (keyingi o'rinlarda – Bank kartasi saqllovchisi) bank kartasi va hisobvarag'ini ochish hamda xizmat ko'rsatish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-369-moddasiga muvofiq ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda – Oferta) tuzishni taklif qiladi.

Bank kartasi saqllovchisi arizani imzolashi orqali oferta tuzishga rozi bo'lganligini hamda uni talablarini e'tirozsiz to'liq qabul qilganligini bildiradi.

Ofertani Bank kartasi saqllovchisi mobil aloqa vositasi orqali bankning www.brb.uz veb-saytidan PDF shaklida yuklab olishi mumkin.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Bank kartasining saqllovchisi – emitent yoki bank kartalarini tarqatuvchi bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnomaga asosan bank kartasidan foydalanuvchi mijoz yoki mijoz tomonidan vakolat berilgan shaxs;

Mas'ul xodim – mijozning korporativ bank kartasidan moddiy javobgarlik asosida foydalanish vakolatiga ega bo'lgan xodimlari;

Korporativ bank kartasi (keyingi matnlarda – bank kartasi) – yuridik shaxsga bank tomonidan beriladigan, bank kartasi saqllovchisiga karta hisobvarag'ida hisobda turgan pul mablag'larini tasarruf etgan holda tovarlar, ishlar yoki xizmatlarni sotib olish uchun naqd pulsiz shaklda to'lovlarni amalga oshirish huquqini beruvchi to'lov kartasi;

ShIR kod – bank kartasi saqllovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami bo'lib, u karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga bank kartasining saqllovchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi;

Karta hisobvarag'i – bank kartasi orqali pul mablag'larini tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i;

"Stop list" – bank kartasi bo'yicha barcha amaliyotlariga cheklov qo'yilgan va to'lov kuchiga ega bo'lmagan bank kartalar ro'yxati.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur oferta bankda yangi hisobvaraqlar ochayotgan mijoz xisob raqam ochish to'g'risidagi oferta arizasini, bankda hisobvarag'i mavjud, lekin korporativ kartasini rasmiylashtirmagan yoki qo'shimcha karta rasmiylashtirmoqchi bo'lgan mijozlar arizani bankka taqdim etishi bilan kuchga kiradi va yuridik shaxsga korporativ bank karta bilan bog'liq hisobvaraqlar ochish, yuritish, ularga xizmat ko'rsatish, bank kartasini taqdim qilish, bank kartasidan foydalanish, qaytarib olish hamda hisobvaraqlarini yopishni tartibga soladi.

3. SHARTNOMANING ASOSIY SHARTLARI

3.1. Bank (korporativ) bank kartasining mulkdori hisoblanadi.

3.2. Oferta qabul qilinganda, bankda xisobvarag'i mavjud, korporativ bank kartasini rasmiylashtirmagan yoki qo'shimcha korporativ bank kartasini rasmiylashtirmoqchi bo'lgan mijoz arizani (bank kartasi moddiy javobgarlik asosida foydalanadigan mas'ul xodimning pasporti nusxasini ilova qilingan holda) bankka taqdim etadi.

3.3. Oferta mijoz tomonidan qabul qilinib, Yuridik shaxslar uchun bank xizmatlari turlari bo'yicha tarifiga muvofiq mijoz tomonidan to'lov amalga oshirilgandan so'ng mijoz arizasida korporativ kartani yetkazib berish xizmatidan foydalanishni ko'rsatib o'tgan bo'lsa belgilangan manzilga maxsus yetkazib berish xizmati tomonida yetkazib beriladi, yetkazib berish xizmati foydalanmasa bank kartasi saqllovchisiga emissiya qilingan bank kartasi taqdim etiladi.

3.4. Mijozning Biznes 24/7 veb platformasi va mobil ilovasi orqali yoki bankka kelgan holda taqdim qilgan arizasiga asosan bank korporativ kartasi maxsus yetkazib berish xizmati xodimi

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI

tomonidan yetkazib beriladi, korporativ kartasi mijozga topshirish jarayonida fotosur'atga oladi.

3.5. Mijoz bank kartasini olgandan so'ng, darhol bank kartasiga o'zining ShIR kodini o'rnatadi.

3.6. Boshqa shaxslar Mijozning korporativ bank kartasi ShIR kodini to'g'ri terib foydalanganda, Mijoz boshqa shaxslarga bank kartasidan foydalanishga ruxsat bergan deb hisoblanadi, amaliyot o'tkazilganligi uchun bank javobgar hisoblanmaydi.

3.7. Mijozning korporativ bank kartasiga uning xodimlariga to'lanadigan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va dividendlarni o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

3.8. Korporativ bank kartasi hisobvarag'ida turgan pul mablag'larini naqd pul shaklida olish mumkin emas.

3.9. Mijoz to'lov topshiriqnomasi orqali talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan o'zining korporativ bank kartasi hisobvarag'ini to'ldirishi mumkin.

3.10. Mijozning korporativ bank kartasi yo'qolganda yoki shikastlanganda, Mijoz ushbu haqida darhol Bankka bank kartasi yo'qotilganligi to'g'risida ariza yoki bank kartasini almashtirish to'g'risida ariza taqdim etishi lozim.

3.11. Bank kartasi yo'qolganligi to'g'risida ariza kelib tushgandan so'ng yangi bank kartasi berilgunga qadar yo'qotilgan bank kartasi topilsa, bank kartasi hisobvarag'i "Stop-list"dan olinib, bank kartasi ishchi holatga keltiriladi.

3.12. "Stop list"ga qo'yilgan bank kartasining o'rniga bankning xizmat haqi to'langandan so'ng, keyingi bank ish kunidan kechiktirilmasdan yangi korporativ bank kartasi beriladi.

3.13. Korporativ bank kartasi bo'yicha Mijozga ko'rsatilgan barcha bank xizmatlari uchun Bank amaldagi xizmat haqi tariflariga muvofiq, bank xizmat haqini, neustoyka va zararlarni mazkur shartnomaga muvofiq, Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan akseptsiz memorial order orqali undirib oladi.

3.14. Mijoz korporativ bank kartasidan foydalanish bo'yicha buyruq asosida mas'ul xodimni tayinlaydi va unga topshiradi.

3.15. Mijozning Bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i yopilganda korporativ bank kartasi va bank kartasi hisobvarag'ini yopish to'g'risidagi arizasiga muvofiq hisobvara bank tomonidan yopiladi.

3.16. Korporativ bank kartasi hisobvarag'i yopilishida undagi qoldiq summalar Mijozning to'lov topshiriqnomasiga asosan Bank tomonidan uning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazib beriladi.

3.17. Mijoz mazkur shartnomani ijro qilish bilan bog'liq Bank uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'g'ri, aniq va o'z vaqtida taqdim etishi lozim.

3.18. Mijoz Bank tomonidan o'rnatilgan ish rejimiga va hujjatlarni rasmiylashtirish tartib qoidalariga rioya qiladi.

3.19. Karta hisobvarag'idagi sarflanmay qolgan mablag'larni talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga qaytarish to'lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

3.20. Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati qonunchilik hujjatlariga muvofiq tugatilganda uning karta hisobvarag'idagi sarflanmay qolgan mablag'lari talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi.

3.21. Yuridik shaxslar tomonidan auksion savdolarida ishtirok etib, xaridlarni amalga oshirish uchun korporativ bank kartasidan foydalanish taqiqlanadi.

3.22. Korporativ bank kartalaridan foydalangan holda naqd pulsiz shaklda to'lash uchun sarf qilinayotgan pul mablag'lari korporativ bank kartasining saqllovchisiga hisobdorlik sharti bilan beriladigan, qat'iy tarzda belgilangan maqsadlarda ishlatiladigan mablag'lar bo'lib hisoblanadi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijozning huquqlari:

korporativ bank kartasi orqali mablag'larini qonunchilikda belgilangan tartibda mustaqil tasarruf etish;

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritish, shu jumladan, davlat boji va yig'imlarni to'lash bilan bog'liq xarajatlarni faqat milliy valyutadagi korporativ bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirish;

xalqaro bank kartalaridan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida nosavdo tusdagi

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI

valyuta amaliyotlarini amalga oshirish maqsadida foydalanilish;

qonunchilik hujjatlarida belgilanga boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Mijozning majburiyatlari:

korporativ bank kartasiga o'rnatilgan ShIR kodini boshqa shaxslarga oshkor qilmaslik;

korporativ bank kartasini faqat Adliya vazirligida 2021-yil 3-aprelda 3294-son bilan ro'yxatga olingan Nizomda belgilangan va korporativ bank kartasini olish uchun yozgan arizada ko'rsatilgan maqsadlardan tashqari boshqa maqsadlarga ishlatmaslik;

korporativ bank kartasi orqali amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligi uchun javobgarlikni zimmasiga olish;

mijoz korporativ bank kartasidan foydalanish vaqtida turli sabab (texnik xatolik, aloqa uzilishi va boshqalar)larga ko'ra yuzaga kelgan moliyaviy xato (kamomad) tranzaksiyalar yuzaga kelganda ushbu kamomadni qoplab berish majburiyatni olish;

SMS xabarnoma orqali keladigan bir martalik tasdiqlovchi kodlarni, mobil ilovalarga kirish huquqini beruvchi parollarni begona shaxslarga taqdim etmaslik;

mobil telefon raqami o'zgarganda, bankni darhol xabardor qilish;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.3. Bankning huquqlari:

a) bank quyidagi hollarda Mijozning bank kartasidan foydalanishini cheklab qo'yish huquqiga ega:

bank kartasidan noqonuniy bank amaliyotlarini amalga oshirishi holati aniqlanganda;

bank kartasidan foydalanish vakolati berilmagan shaxs tomonidan foydalanilganligi yoki foydalanilmoqchi bo'lganligi aniqlanganda;

mazkur shartnoma nazarda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda;

bank kartasidan foydalanish jarayonida Bank yoki boshqa shaxslarning pul mablag'larini o'zlashtirish yoki boshqa har qanday shaklda Bankka zarar yetkazilganda;

mijozning Bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i yopilgandan so'ng 1 bank ish kuni davomida bank kartasi hisobvarag'ini yopish to'g'risida ariza bermaganda;

mijozdan yoki uning ishonchli vakilidan bank kartasining yo'qolganligi yoki shikastlanganligi to'g'risida ariza olinganda;

bank kartasidan foydalanishda uch marta bank kartasi ShIR kodini noto'g'ri terfganda;

karta hisobraqamidagi aktiv qoldiqdan ortiq miqdorda tranzaksiyalar amalga oshirilganda ushbu mablag'lar mijoz tomonidan 3(uch) bank ish kun davomida ixtiyoriy ravishda qoplanmagan taqdirda bank tranzaksiya summasini mijoz rozilgisiz aksepsiz undirish huquqiga ega;

mijoz tomonidan amaldagi qonunchilikka rioya qilinmaganlik holatlarida.

b) mijozning korporativ bank kartasi hisobvarag'iga uchinchi shaxslar hisobvarag'idan kelib tushgan pul mablag'larini kirim qilmaslik;

v) Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga" (ro'yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) muvofiq mijoz hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga yoki ularni amalga oshirishni rad etishga haqli) qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4. Bankning majburiyatlari:

mijozga shartnomaga muvofiq bank kartasini taqdim etish va xizmat ko'rsatish;

bank kartasining yo'qotilganligi yoki shikastlanganligi to'g'risida Mijozdan ariza kelib tushganida, bir bank ish kunida korporativ bank kartasini "Stop list"ga qo'yish;

mijozning so'roviga asosan bank karta hisobvarag'i orqali o'tkazilgan amaliyotlar to'g'risida ma'lumotlarni belgilangan tartibda Mijozga taqdim etish;

mijozning Biznes 24/7 veb platformasi va mobil ilovasi orqali yoki bankka kelgan holda taqdim qilgan arizasida bank korporativ kartasini yetkazib berish xizmatidan foydalanishni ko'rsatib o'tgan bo'lsa, korporativ kartani maxsus yetkazib berish xizmati tomonidan yetkazib berish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.5. Taraflar mazkur shartnoma doirasida bo'lgan munosabatlarida O'zbekiston

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI

Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish qonunchiligi talablariga rioya etish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

4.6. Mijoz yoki mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiya 2886-ga asosan yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan taqdirda bank ushbu mijozni tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini – operatsiya bo'yicha pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning manbalari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni olish, maqsadlarini o'rganish, ushbu mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustidan doimiy monitoring yuritish va bu haqda komplaens nazorat xizmati mas'ul xodimiga xabar berishlari shart.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taraflar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarlikka tortiladi.

5.2. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan shartlar amaldagi boshqa qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5.3. Kelishuvga erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq sud orqali hal etiladi.

6. TOMONLARNI JAVOBGARLIKDAN OZOD QILUVCHI HOLATLAR

6.1. Mijozning bank kartasidan foydalangan holda Mijozga yetkazilgan zarar uchun quyidagi hollarda Bank javob bermaydi:

6.2. Mijoz tomonidan mazkur shartnomada nazarda tutilgan o'z majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda;

6.3. Mijoz o'z bank kartasi ShIR kodini o'rnatmaganligi yoki Mijoz bank kartasi ShIR kodi Mijozning aybi bilan uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lganida;

6.4. Mijoz bank kartasi yo'qolganligi yoki shikastlanganligi to'g'risida arizasi bilan Bankka murojaat etmaganligi natijasida, bank kartasi o'z vaqtida "Stop list"ga qo'yilmaganida;

6.5. Bank kartasi va bank kartasi hisobvarag'ini yopish to'g'risida ariza Bankka taqdim qilinishdan oldin bank kartasidan foydalanilgan holda amaliyotlar amalga oshirilganda;

6.6. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amalda bo'ladi.

7.2. Bank kartasi mazkur shartnomada ko'rsatilgan maqsadlardan tashqari boshqa maqsadlarda ishlatilganda Bank mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

7.3. Mazkur shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan bank xizmat haqi, neustoyka va zarar summalarini, ularni to'lashi kerak bo'lgan kundan boshlab 1 oy muddat ichida to'lamaganda, Bank mazkur summalarni to'liq undirgan holda shartnomani bekor qilishi mumkin.

7.4. Mazkur shartnoma bilan taqiqlanganligi belgilanmagan, ammo qonun hujjatlariga xilof ravishda foydalangan hollarda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

7.5. Mazkur shartnoma yuqorida ko'rsatilgan asoslardan tashqari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Bankda xisobvarag'i mavjud, lekin korporativ karta rasmiylashtirmagan yoki qo'shimcha karta rasmiylashtirmoqchi bo'lgan mijozlar uchun

_____(BXO, BXM, BXKM)
rahbari _____ga

(xo'jalik yurituvchi sub'ekt nomi)
tomonidan

ARIZA

(Namunaviy shakl)

(Yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga milliy yoki chet el valyutasida korporativ bank kartasini ochish va taqdim qilish bo'yicha)

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"
YURIDIK DEPARTAMENTI

Sizdan “_____” xo‘jalik ehtiyojlari uchun
/xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt/YaTT/ nomi va mulk shakli/

/Uzcard/, /Humo/, /Visa/korporativ bank kartasi va hisobvarag‘ini ochishingizni hamda
[tegishlisini osti chizilsin]

bank kartasini /xo‘jalik sub‘ektimiz xodimi/YaTTmiz vakolatli vakili/ _____
(pasport seriyasi “_____”, raqami “_____”)ga biriktirib berishingizni so‘raymiz.

Yuridik shaxslarga milliy/xalqaro korporativ bank kartasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy oferta shartlari, korporativ bank kartasidan foydalanish qoidalari, ularni buzganlik uchun belgilangan javobgarlik hamda bankning amaldagi bank kartasiga doir xizmat haqi tariflari bilan to‘liq tanishdik, rozimiz.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekti/YaTT/mizning bankdagi hisobvarag‘i boshqa bankka o‘tkazilganda, bank kartasini amal qilish muddati tugaganda, ushbu bank kartasi bo‘yicha Bank bilan o‘rtamizda imzolangan shartnomani bekor qilingan deb hisoblashingizni so‘raymiz. Bank kartasini o‘z vaqtida bankka qaytarish majburiyatini olamiz.

Bank kartasi biriktirilgan /xodimimiz/vakolatli vakilimiz/ning shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi(lari) ilova qilindi.

Ariza taqdim qilingan sana: “_____” _____202__ y.

/Xo‘jalik yurituvchi subekt/YaTT/ rahbarining F.I.Sh. / (Imzo) / /M.O‘/

- Korporativ bank kartani etkazib berish uchun belgi qo‘ying va etkazib berish manzilini yozing: _____
_____ tel: _____

Bank belgilari:

Ariza qabul qilingan sana: “_____” _____202__ y.

Ariza va ilovalarini qabul qilib olgan bank bo‘linmasi mas‘ul xodimining

(F.I.Sh.)

(Imzo)



IMZOLANGAN:

**Biznes jarayonlarni boshqarish boshqarmasi Operasion departament
tarkibidagi Biznes jarayonlarni boshqarish boshqarmasi yetakchi**

menejeri: Y.Xudaykulova

kelishuvchilar: A.Xolov, B.Arifdjanov, A.Mukhtarov, J.Alimov,
J.Yusupov, S.Tashev, D.Nomozov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=r184hA54&id=f3e52fef-bae0-4e53-99a5-2564f958cf39>

ATB “Biznesni rivojlantirish banki”

YURIDIK DEPARTAMENTI